

Andijon viloyat statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-mart oylarida Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **4394,1 mlrd.so'mni**, o'sish **33,6 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **41,1 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **72,2 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **20,9 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda korxonalari tomonidan 4394,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 133,6 % ni tashkil etdi.

- Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 96,7 foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2,5 foiz, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,3 foizni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4248,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,7 % ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 111,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3174,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 141,1 %, jami sanoatdagi ulushi esa 72,2 % ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

1-diagramma



Yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

2-diagramma




Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 58,3 % ulushini), Andijon (18,5 %), Honobod shaharlari (4,5 %), Andijon (2,4 %), Baliqchi (2,2 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar-mart oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da

3-diagramma



Shu bilan birga eng kam ulush Marhamat (1,1 %), Bo`z (0,7 %), Buloqboshi (0,6 %), Ulug`nor (0,6 %) va Paxtaobod (0,6 %) tumanlariga to`g`ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Honobod (2017 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 123,6 % ga), Andijon (114,7 % ga) shaharlarida, Asaka (157,0 % ga), Jalaquduq (111,5 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)

4-diagramma

